



## Tashqi savdo

(dastlabki ma'lumot)


2018 yil yanvar-iyul

Viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-iyul oylarida 158,0 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 82,8 mln. AQSh dollarini va import 75,2 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosini 7,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, shundan MDH davlatlari bilan 28,1 mln. AQSh dollari va boshqa davlatlar bilan -20,4 mln. AQSh dollari tashkil etdi.

Oxirgi yillarda viloyatimizning eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari eksportining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 291,0 foizni, kimyo mahsuloti va plastmassa 507,5 foizni, rangli metal mahsulotlari 173,5 foizni, mashina va asbob uskunalar 52,3 xizmatlar eksporti 334,1 foizni, boshqalar 98,7 foizni tashkil qiladi.


### Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi, jamiga nisbatan foizda




Oziq-ovqat mahsulotlari importining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 121,1 foizni, mashina va asbob uskunalar 190,8 foizni, rangli metal mahsulotlari 59,6 foizni, qora metal mahsulotlari 32,8 foizni, ish va xizmatlar importi 398,2 foizni tashkil qildi.

# Tashqi savdo

Tovar va xizmatlarning import tarkibi, jamiga nisbatan foizda



2018 yil yanvar-iyul oylarida viloyatimiz tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda




Tashqi savdo MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 34,5 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Eron, Islom Respublikasi, Shimoliy Koreya, Germaniya, Ukraina, Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Avstriya, Hindiston, Litva davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 61,0 foizni tashkil qildi.

# Tashqi savdo

Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

Eksport

Import



Eksport bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukrayina, Tojikiston va Qirg'iziston davlatlari eksport aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami eksport aylanmasidagi ulushi 51,2 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Eron, Koreya, Turkiya, Afg'oniston, Vetnam davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 44,8 foizni tashkil qildi.

Import bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiya va Qirg'iziston davlatlari import aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami import aylanmasidagi ulushi 18,4 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Shimoliy Koreya, Turkiya, Germaniya, Eron, Avstriya, Litva va Hindiston davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 75,5 foizni tashkil qildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
bo'limi**